

O'ZBEKISTON HUDUDIDA ZAMONAVIY XATTOTLIK RIVOJLANISH BOSQICHLARI.

Maftuna Kalbayeva

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqola O'zbekiston hududida zamonaviy xattotlik san'ati shakllanishi va taraqqiyotining asosiy bosqichlarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Unda Sharq xattotlik an'analari bilan uzviy bog'liq bo'lgan milliy merosning o'rni hamda mustaqillik yillarida yuz bergan madaniy uyg'onish jarayonlari yoritilgan. Tadqiqotda XX asr oxiri – XXI asr boshlaridan boshlab xattotlikning dastlabki izlanish davri, mustaqillikdan keyingi faol integratsiya jarayoni va hozirgi innovatsion yo'nalishlar bosqichma-bosqich tahlil qilinib, an'anaviy shakllarning zamonaviy dizayn, raqamli texnologiyalar hamda multimedia san'ati bilan uyg'unlashuvi ilmiy asosda ko'rsatib beriladi. Maqola xattotlikning milliy identitetni mustahkamlash, xalqaro badiiy makonda o'zbek san'atini targ'ib etishdagi ahamiyatini ochib berish, hamda kelgusida ushbu yo'nalishning nazariy va amaliy rivojlanish istiqbollari belgilab beradi.*

Kalit so'zlar: *“Kalligrafiti”, tarixiy meros, nasta'liq xat, an'anaviy xattotlik.*

KIRISH

Zamonaviy san'atning yuksalish bosqichida O'zbekiston hududida xattotlik san'ati ham o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tmoqda. An'anaviy xat turlarining badiiy-estetik ifoda vositasi sifatida qayta talqin qilinishi, raqamli texnologiyalar ta'siri, yosh avlod ijodkorlarining yangicha qarashlari zamonaviy xattotlikning yangi bosqichini belgilab bermoqda. Ushbu bo'limda zamonaviy xattotlikning rivojlanish tendensiyalari, xat turlarining modifikatsiyasi va ularning san'atdagi o'rni, muammolari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Tarixda xattotlik asosan diniy matnlar yoki hujjatlarni chiroyli yozish maqsadida xizmat qilgan bo'lsa, bugungi kunda u badiiy ifoda vositasi sifatida ishlatilmoqda. Bu san'atning kommunikativ vazifasidan tashqari estetik va konseptual vazifalarini kengaytiradi. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan xattotlar milliy yozuv merosini zamonaviy badiiy yo'nalishlar bilan uyg'unlashtirib, yangi estetik shakllar yaratmoqdalar. Zamonaviy xattotlikda an'anaviy yozuv turlarining (nasx, suls, nasta'liq, kufiy) yangi ko'rinishlari paydo bo'lmoqda. Bular zamonaviy dizayn, grafika va raqamli texnologiyalar yordamida qayta ishlab chiqilmoqda. Harflarning shakli bilan tajriba qilish orqali yangi yozuv uslublari vujudga kelmoqda.

Misol: “Kalligrafiti” - bu grafiti san'at bilan xattotlikning sintezi bo'lib, ayniqsa yosh rassomlar orasida keng tarqalmoqda. Misol tariqasida, A.Mahmud, M.Kalbayeva, B.Dedashev va M.Sobitovalarning devoriy panno va devoriy asarlarini ta'kidlash mumkin. Zamonaviy shahar makonida kalligrafik san'atning o'ziga xos, kontseptual va dekorativ ifodalanishi, uni faqat an'anaviy diniy yoki tarixiy kontekstdan emas, balki modern dizayn va jamoat muhitlari bilan integratsiya qilish imkonini bermoqda.

Aynan shunday yondashuvni Toshkent shahrida joylashgan “Black Star Carwash” avtomobillarni yuvish markazining interyerida kuzatish mumkin.



1-rasm

Bu yerda devor va pol bo'ylab joylashtirilgan yirik formatli kalligrafik yozuvlar ekspressiv ritm va kontrastli plastikasi bilan diqqatni tortadi. Murakkab tekstural va dinamik yozuv tili zamonaviy “calligraffiti” yo'nalishiga mansub bo'lib, unda an'anaviy g'arbiy gotik shriftlarga xos shakliy belgilar dominantlik qiladi. Yozuvning semantik mazmuni noaniq, u ko'proq dekorativ-funksional element sifatida xizmat qilgan. Harf shakllari haddan tashqari stilizatsiyalangan bo'lib, ular o'qilmasligi sababli kalligrafiyaning mazmuniy jihatiga zarar yetkazilgan deyish mumkin. [1-rasm].

Shuningdek, Amaliya Mahmud tomonidan “Aif” o'quv markazi devoriga tatbiq etilgan kalligrafik asar mazmun va shakl uyg'unligi nuqtai nazaridan alohida e'tiborga loyiqdir. Bu kompozitsiya sferik markaziy tuzilishga ega bo'lib, uning atrofidagi yozuvlar radial simmetriya asosida joylashtirilgan. Harflarning vertikal va gorizontallik yo'nalishlarda berilishi, rang kontrasti (oq, qora va ko'k) va harf-harakat ritmi umumiy kompozitsion muvozanatni ta'minlab bergan. Ikkala holatda ham zamonaviy xattotlik san'ati shahar makonida yangi vizual til sifatida paydo bo'lmoqda. Birinchisi ko'proq dekorativ va reklama makoni dizayniga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi ilmiy-ma'rifiy muhitda kontseptual estetikani kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlatilgan. Har ikkala ish zamonaviy kalligrafiya, kalligraffiti san'at yo'nalishining O'zbekistondagi shakllanish va ijodiy tajribalari namunasidir. [2-rasm].




2-rasm

Zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan, kompyuter grafikasi va vektorli grafik dasturlar (Adobe Illustrator, CorelDRAW) yordamida xattotlik san'ati yangi bosqichda – raqamli san'at shaklida rivojlanmoqda. Bu jarayon nafaqat kalligrafik ifoda vositalarining estetik diapazonini kengaytirmoqda, balki xattotlikni amaliy san'atning dizayn, vizual kommunikatsiya, branding va reklama kabi dolzarb yo'nalishlariga integratsiyalash imkonini bermoqda. Xususan, hozirgi paytda mobil ilovalar interfeysi, kafe va restoranlar, ta'lim muassasalari hamda boshqa tijorat sub'yektlari uchun yaratilayotgan logotiplarda arab xattotligining kufiy va suls uslublaridan keng foydalanish kuzatilmoqda. Bu esa xattotlikning funksional va dekorativ xususiyatlarini zamonaviy dizayn me'yorlari bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bu yo'nalish bo'yicha bugungi kunda xattot Fazliddin Po'latov, Saidumar Mirxo'jayev va boshqa ko'plab dasturchi rassomlar faoliyat olib borishmoqda. F.Po'latov asosan kufiy xati bilan turli ibratli so'zlarni namoyon qilsa, S.Mirxo'jayev esa suls xati bilan logotiplar yaratadi. S.Mirxo'jayev asosan buyurtmalar asosida ijod qilsa, F.Po'latov o'zining mualliflik kontseptsiyasi asosida ishlaydi. Ammo ikki ijodkorning ham raqamli texnologiya bilan integratsiya bo'lgan ijodiy ishlarida o'ziga yarasha murakkablik bor, matnning tasviriy obrazga aylantirilishi, xususan, har bir harf va so'zning semantik yukini estetik kompozitsiyaga joylashtirish jarayoni yuqori darajadagi badiiy izlanishni talab etadi. [3-rasm].




F.Po'latov ijodiy namunalari



S.Mirxo'jayev

Madaniy identifikatsiya va merosga qaytish tendensiyasi. Zamonaviy xattotlikga milliy o'zlikni aks ettirish vositasi sifatida ham qaralmoqda. Yosh xattotlar eski yozuvlarni o'rganib, ularni zamonaviy kompozitsiyalarda qayta ifoda qilishmoqda. "Sharq taronalari", "Navro'z" kabi xalqaro festivallar va respublika ko'rgazmalarida namoyish etilayotgan xattotlik asarlarida arabiy yozuv asosida o'zbek tilidagi matnlar yozilishi bu tendensiyaning yorqin namunasi bo'lmoqda. Habibullo Solih, Azamxo'ja Asqarov, Islom Mamatov umuman O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan barcha xattotlarda ushbu uslubni ko'rishimiz mumkin. Ular nafaqat o'zbekcha so'zlarni arab xarflari bilan balki chet tillardagi iboralarni ham arab harflari bilan yozib tomoshabinga taqdim qilmoqda.

I.Mamatovning fors shoiri Sadiy Sheroziyning “Guliston” asariga nisbatan bajarilgan ijodi kaligrafik tafakkur namunasi bo‘lib, unda nasta’liq xat san’atining eng nozik texnikalari, ekspressivlik va plastikalik mahorat bilan uyg‘unlashtirilgan. Asar ilk nigohda an’anaviy matn emas, balki abstrakt ekspressiv grafika sifatida idrok qilinadi, bu holat uni zamonaviy xattotlik san’atiga yaqinlashtirgan. Asar markazdan periferiyaga yoyilgan holda murakkab qatlamli tuzilishga ega. Xattotlik yozuvlari o‘zining zichligi va dinamikligi bilan vizual harakatni hosil qiladi. So‘zlar bir-biriga yopishgan, ba’zida qamrab olgan shaklda, bu esa kompozitsion ekspansivlik ya’ni, chegaralarni buzib chiqishga urinish hissini beradi. Odatda mutafakkir olimlar asarlari nasta’liq xatida bitilgan, bu asarda shu an’ana saqlab qolingani. Asarda layeringdan (qatlamlashtirish) foydalanilgani matnni vizual jihatdan murakkablashtiradi, shu bilan birga o‘quvchini chuqur mulohazaga undaydi. Har bir qatlamda boshqa bir ma’no yashiringan bo‘lishi mumkin. Matn klassik adabiy asar bo‘lsa ham, bu yerda u tasviriy shaklga aylangan. Ya’ni, poetik ifoda shakldan chiqib, formaning o‘ziga aylangan. Bunday yondashuv hozirgi zamonaviy xattotlikning muhim tendensiyalaridan biridir vizual she’riyat (visual poetry) deb yuritilmoqda. I.Mamatovning bu asari oddiy xattotlik emas, balki estetik kontseptualizmga asoslangan zamonaviy kaligrafik installatsiyadir. Bu nafaqat matnni yozish, balki uni vizual va hissiy jihatdan yangidan talqin qilishdir. [4-rasm].



4-rasm

A.Asqarovning lefkas qilingan “Harakat” deb nomlangan pannosi zamonaviy dekorativ-ramziy san’at yo‘nalishida ishlangan bo‘lib, unda ranglar uyg‘unligi, chiziqlar ritmi va harf shakllari o‘zaro semantik aloqadorlikda mujassam. Asarda geometrik spiralsimon kompozitsiya orqali vizual dinamizm hosil qilingan, bu esa tomoshabinni markazga ruhiy-tasavvufiy g‘oyani ifodalovchi markaziy belgiga yo‘naltiradi. Bu markazda joylashgan ramz xuddi yin-yang falsafasini eslatadi, ammo o‘ziga xos etnik ornamentlar bilan boyitilgan bo‘lib, Sharqona tafakkurni o‘zida mujassamlashtiradi. Koloristik yechim asarning eng muhim estetik komponentidir. Asqarov ranglarning kuchli kontrasti orqali kompozitsiyaga jo‘shqinlik va hayotiylik baxsh etgan. Qizil, ko‘k, sariq va yashil ranglarning almashuvi, ularning spiralsimon harakatda ketma-ket joylashuvi vizual rezonans yaratib, asarga ko‘z bilan qaralganda harakat illuziyasini beradi. Ayniqsa, qora konturlar bilan ajratilgan bloklar har bir bo‘yoq rangining alohida eshitilishi kabi, ularning har birining o‘z “ovoziga” ega bo‘lishini ta’minlaydi. Arab grafikasi asosida yozilgan o‘zbekcha matn esa asarning semantik yukini oshiradi. Bu asarda Umar Xayyomning ruboyisi devoniy xatida

bitilgan. Ammo bu yozuvlar to'q ko'k rangda bo'lgani uchun fon bilan yetarli kontrastda emas va o'quvchanlik pasaygan. Bunday holat matnning estetik funksiyasini saqlab qolgan holda informatsion vazifasini zaiflashtiradi. Tomoshabin matnni to'liq anglashda qiyinchilikka duch kelishi mumkin, bu esa asarning umumiy g'oyaviy yetkazilish kuchini pasaytiradi. Agar asar tomoshabin bilan to'laqonli interaktiv muloqotga kirishishini istasak, matn rangini fon bilan kontrastda bo'lishini ta'minlash zarur. Bu orqali yozuvlarning mazmuniy yukini kuchaytirish, asarning estetik va semantik qabulini uyg'unlashtirish mumkin. A.Asqarov murojaat qilgan bu uslub boshqa xattotlik asarlaridan birmuncha ajralib turadi. [5-rasm].



5-rasm



6-rasm

Shu bilan birga, A.Asqarov va yosh ijodkor M.Sobitovaning xattotlik asarlari vitraj texnikasi asosida yaratilgani bilan ham ajralib turadi. Mazkur uslubda xattotlik nafaqat matn sifatida, balki dekorativ-bezak san'ati elementi sifatida ham talqin qilinmoqda. A.Asqarovning vitraj texnikasidagi asarlari xattotlikning klassik an'analariga tayanadi. Uning ishlari kompozitsion barqarorlik, simmetrik qurilish va an'anaviy nasx, suls kabi yozuv turlarining qat'iy qoidalariga amal qilgan holda bajarilgan. M.Sobitovaning ishlari esa vitraj san'atining eksperimental yo'nalishini namoyon etadi. Unda xattotlik unsurlari nafaqat yozuv, balki shakl va tasvir bilan integratsiyalashgan.

U asarlarida xattotlikni o'simliksimon naqshlar, gulli shakllar, yorqin ranglar va yaltiroq teksturalar bilan uyg'unlashtirib, ekspressivlikka erishadi. Bunday yondashuv zamonaviy tasviriy san'at elementlarini xattotlik bilan sintez qilishga intilganligini ko'rsatadi. Asqarov o'z asarlarida formal an'anani saqlab qolgan holda yangi material oynani qo'llagan bo'lsa, Sobitova individual badiiy ifoda, dekorativlik va zamonaviy dizayn yondashuvlari orqali yangi shakllarni izlagan.

Ularning asarlari zamonaviy o'zbek xattotligining diversifikatsiyalashuv jarayonini, ya'ni yangi shakl, uslub va materiallarga ochiqqligini ko'rsatadi. [6-rasm].

Izlanishimiz davomida bugungi kunda bir xat turiga murojat qilayotgan va uni rivoji uchun hissa qo'shayotgan xattot ijodi ham bor. Ulug'bek Orifjonov ko'p yillik tajribali xattot, uning xattotlik amaliyotida "kufiy" yozuvi yetakchi estetik komponent sifatida namoyon bo'ladi.

U.Orifjonov kufiy xatini barcha turlarida kufiy bannoiiy, kufiy murabba, kufiy fotimiy va tarixiy hijoz turlarini zamonaviy kompozitsion yechimlar bilan boyitib, milliy xattotlik maktabiga o'ziga xos yondashuv olib kirmoqda. U.Orifjonovning ishlari orasida bir necha qirralilik ko'zga tashlanadi: ba'zilarida u geometrik konstruktivlik va minimalizmga urg'u bersa, boshqalarida esa kufiy yozuvni arabesk naqshlar bilan sintez qilgan holda dekorativ-bezak san'atini namoyish etadi. Boshqa bir asarida esa kufiy yozuvi vertikal kompozitsion sxemada foydalanilgan bo'lib, unda markaziy chiziqlar simmetrik ravishda joylashtirilgan.

Ustki qismdagi zarif islamiy naqsh va quyi qismdagi tuguncha ornamental elementlar yozuv bilan uyg'unlashib, an'anaviy timsollarni zamonaviy ifoda vositalarida aks ettiradi. Bunday formalistik izlanishlar kufiy xatining faqat me'moriy obida matnlarida emas, balki mustaqil asar, dekorativ-simvolik shaklda ham funksionallashayotganini ko'rsatadi.

Uning asarlari kufiy xatining nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy badiiy ifoda uchun ham boy manba ekanligini isbotlab bermoqda. [7-rasm].



7-rasm

Aynida davrda xattotlikni yana bir soha bilan integratsiyasi mavjud, bu uyg'unlik paydo bo'lganiga ko'p vaqt bo'lmagan. Xattotlik asarlari nafaqat an'anaviy liboslarda, balki zamonaviy moda industriyasida ham faol tarzda qo'llanilmoqda. Tarixda bu san'atning matolarda qo'llanishi ilk bor Qur'on o'ramlari, bayroqlar, ka'ba kisvasi, diniy to'nlar va minoralarda kuzatilgan. Ustoz xattotlar tomonidan yaratilgan kufiy, suls, nastaliq yozuvlari ko'pincha ipak, shoyi va paxta matolariga qo'lda yoki kashta usulida tushirilgan. Xattotlik zamonaviy liboslarda qo'llanilganda turli texnik usullardan foydalanilmoqda, jumladan matoga bosma (screenprinting)- naqsh sifatida yozuvlarni matoga bosib chiqarish; Applikatsiya qilish, ya'ni yozuv shakllarini boshqa matolardan kesib tikish; Harflarni yakka holatda abstrakt shaklda bezak sifatida berish. Ammo xattotlik san'atining zamonaviy libos dizaynlariga integratsiyasi boshqa badiiy-amaliy yo'nalishlarga nisbatan murakkabroq jarayon bo'lib, u qator estetik va semantik muammolarni yuzaga keltiradi. Avvalo, yozuv elementlarining liboslarda dekorativ motif sifatida qo'llanishi ko'pincha ularning mazmuniy qatlamini yo'qotadi. Bunday holatda bitiklar, ya'ni harf shakllari, vizual-kompozitsion elementga aylanib, o'zlarining asl lingvistik mazmunidan ajralib qoladi. Bu esa yozuvning

kommunikativ funksiyasining zaiflashishiga olib keladi. Xattotlik san'ati bugungi vizual madaniyatda milliylik, ma'naviylik va badiiy ifodaning sintezini ifodalaydi. Bu yo'nalishda ishlovchi ijodkorlar xattotlikning asosiy prinsiplarini chuqur anglashlari va uni mazmuniy buzilishsiz joriy etishlariga ehtiyoj katta. Shuningdek, muqaddas matnlarning, xususan Qur'oni karim oyatlarining yoki diniy iboralarining liboslarda noo'rin kontekstda (yuviladigan yoki yerga tushadigan matolarda) ishlatilishi diniy-estetik mezonlar nuqtai nazaridan qabul qilib bo'lmaydigan holatlarni yuzaga keltiradi. Bu esa jamoatchilikda madaniy hamda diniy e'tirozlarni keltirib chiqarishi mumkin. [8-rasm].



Yana bir muhim jihat shundaki, ayrim dizaynerlar xattotlikning badiiy strukturalari, yozuv plastikasining ichki qonuniyatlari va kompozitsion muvozanatini yetarli darajada o'zlashtirmagan holda, uni faqat yuzaki dekorativ effekt sifatida qo'llashga urinadilar. Natijada, harf shakllari deformatsiyalanadi, ritmik tartib buziladi va xattotlik san'atining grafik estetikasi sustlashadi.

Xulosa

Zamonaviy o'zbek xattotligi tarixiy izlanishlardan boshlab, faol integratsiya va innovatsion rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi, natijada nafaqat milliy estetikani, balki xalqaro badiiy makonni ham boyituvchi mustaqil yo'nalish sifatida shakllandi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda zamonaviy xattotlik nafaqat badiiy amaliyot, balki madaniy identitetni mustahkamlovchi, ta'lim jarayonlarini boyituvchi va yangi ilmiy-nazariy g'oyalar uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qilmoqda, bu esa uni kelgusida yanada rivojlantirish, maxsus ilmiy maktablarni shakllantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish zarurligini taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Barthold. W. Eine Zamahšarī-Ilandschrift mit alttiirkischen Glossen. Islamica, vol. If.
2. Дарский Э.Н. Устав цеха живописных мастеров. Народы Азии и Африки, 1959.№3.
3. Заходера Б.Н. Трактат о каллиграфах и художниках. – Искусство,1947.
4. Костыгова Г. И. Источник изучения истории культуры Средней Азии и Ирана. / Древность и средневековые народов Средней Азии (История и культура). Под. ред. Б. Г. Гафурова и Б. А. Литвинского. - Москва, 1978.